

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA FAKLTETI
MUSIQA TA’LIMI

Zokirova Umida Chorinyevnaning

5111100 - Musiqiy ta’lim yo‘nalishi bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

Bitiruv malakaviy ishi

**Mavzu: Musiqa madaniyiyati darsi va uning mazmuni
hamda tuzilish jihatlari**

Ilmiy rahbar: pedagogika
fanlar nomzodi, dotsent
B.I.Mustafojev

Buxoro – 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	4-7
1 BOB. MUSIQIY FAOLIYATLAR VA ULARNING BADIY HAMDA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.....	8-12
1.1. Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari.....	12-20.
1.2. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari.....	21-41
2 BOB. O‘QUVCHILARDA MUSIQIY FAOLIYATLARGA NISBATAN QIZIQISHLARNING NAMOYON ETILISHI	
2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish imkoniyatlari.....	42-49
2.2. O‘rta sinf musiqa mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish yo‘l va usullari.....	50-57
XULOSA.....	58
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	59-60

REJA

Kirish.

1 BOB. MUSIQIY FAOLIYATLAR VA ULARNING BADIY HAMDA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.

1.1. Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari.

1.2. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari.

2 BOB. O‘QUVCHILARDA MUSIQIY FAOLIYATLARGA NISBATAN QIZIQISHLARNING NAMOYON ETILISHI.

2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish imkoniyatlari.

2.2. O‘rta sinf musiqa mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish yo‘l va usullari.

XULOSA.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

Kirish.

Hozirgi zamon ta'lim tizimini rivojlantirish va uni jahon andozalari darajasiga olib chiqish ta'lim sohasining ustuvor vazifalaridan biridir. Ayniqsa, musiqa madaniyati jamiyatimiz yoshlarining ma'naviy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Buyuk davlat arbobi I.Karimovning “Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch” asarida shunday deyiladi: - “Uyida dutor, doyra yoki boshqa cholg'u asbobi bo'lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o'z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin, desak mubolag'a bo'lmaydi. Eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda”¹.

Milliy musiqamizning tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni musiqiy bilimlar bilan qurollantirish, shu orqali ularda xalqimizning milliy an'analariga, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz durdonalariga faol ijobiy munosabat va qiziqishni tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan vazifadir.

Prezident SH.M.Mirziyoyev Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan majlisdagi “Asosiy maqsadimiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish” mavzusidagi ma'ruzasi yangi tarkibdagi mazkur besh yillikda amalga oshiradigan strategik ishlarining rejasini yaqqol namoyon etdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu ma'ruza yangi tarkibdagi besh bosqichli strategiyaga, qolaversa ularning diqqatini mamlakatimiz ijtimoiy va madaniy hayotida muhim

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008. – 141 б.

ahamiyat kasb etib borayotgan bugungi kundagi dolzarb masalalarga qaratishdan iborat bo'ldi.

Ushbu ma'ruzada Yurtboshimiz xalq manfaatining barcha sohalarini diqqat markazida tutib, ayniqsa, mamlakatni modernizatsiyalash, ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, pirovard natijada xalq xo'jaligi uchun raqobatbardosh kadrlar etkazib berish ustuvor maqsadlarimiz sirasiga kirishini alohida ta'kidlab o'tdi.

Jumladan, bizning bugungi asosiy vazifamiz jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozni tubdan o'zgartirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishdan iborat ekanligiga urg'u berdi.

SHuni ta'kidlash kerakki, - deya davom ettirdi Prezident, - avvalo 2017-2021 yillarga mo'ljallangan strategiyaga asosan dasturi samaradorligini xolisona baholash muhim prinsipial ahamiyat kasb etadi. O'tgan yil yakunlari haqida gapirganda, 2009 yil biz uchun haqiqatan ham g'oyat qiyin bo'lganini aytib o'tirishga hojat yo'q, deb o'ylayman.

Umumta'lim maktabi musiqa ta'limi milliy qadriyatlarga hurmat, musiqiy rivojlantirish orqali o'quvchilarni nafosat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Ayniqsa, maktab ta'limini rivojlantirishning mustaqillik yillarga mo'ljallangan davlat umummilliy dasturi soha xodimlari oldiga yanada yuksak vazifalarni qo'ydi. Jumladan, musiqa darslari o'qitiladigan 1-7 sinflar umumiy o'rta ta'limning muhim qismi hisoblanadi va musiqa darslari o'quvchilarga nafosat tarbiyasi berish, milliy madaniyatimiz,

qadriyatlarimizni qo'shiq va kuylar vositasida yoshlar qalbiga singdirishdan iboratdir.

Zero, musiqa san'ati yosh avlodga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatib, faqat uni faol hamda chuqur idrok etishni emas, balki shu san'at bo'yicha mustaqil bilish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Ta'limning birinchi yilidan boshlab bolalar bilan darsda musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish bajariladi. SHu bois, ularning darsda amalga oshiriladigan musiqiy faoliyatlar, ya'ni, musiqa tinglash, musiqa savodi, qo'shiq kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, cholg'u sozlari bilan tanishish, ijodkorlar faoliyati bilan tanishish kabilar bo'yicha alohida tasavvurlari bo'lishiga erishish zarur.

Yuqorida aytib o'tilgan musiqiy elementlarning ongli, ixtiyoriy va zavq bilan amalga oshirilishi uchun albatta musiqiy faoliyatlarga qiziqish va ehtiyojlar bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Jumladan, boshlang'ich sinflarda mashg'ulotlar ya'ni, qo'shiq kuylash, musiqa savodi bo'yicha mavzu materialini o'rganish, musiqiy ritmik harakatlarni amalga oshirish, ijodkorlik faoliyatlari - faqatgina o'yin tarzida olib boriladi.

Bunday ish usulini tashkil etish musiqa o'qituvchisidan pedagogik mahorat, kasbiy bilimlar, pedagoglik qobiliyatlari hamda o'quvchilarni sevishni talab etadi. CHunki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar hali o'zlariga topshiriladigan barcha vazifalarni o'yin sifatida qabul qiladilar. SHuning uchun ular bilan barcha musiqiy mashg'ulotlarni aynan o'yin shaklida tashkil etish zarur.

O'rtta sinflarda esa bolalarning aqliy-intellektual imkoniyatlari o'sadi, bilishga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi. Bu paytda ularning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olgan holda musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish zarur.

Har bir musiqa mashg'ulotida bolalarning musiqiy faoliyatlarga nisbatan qiziqishlarini muntazam o'stirib borish ta'lim maqsadini amalga oshirishda muhimdir.

1. MUSIQIY FAOLIYATLAR VA ULARNING BADIY HAMDA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.

§ 1.1. Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari.

SHuni bugun katta mamnuniyat bilan ta'kidlashimiz kerakki, - dedi I.Karimov Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan yig'ilishdagi ma'ruzasida², - hukumatimiz tomonidan 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi dasturning inqiroz ta'sirini yumshatish va bartaraf etishda roli va ahamiyati katta bo'ldi. Dastur o'ziga qamrab olgan, o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda, avvalo, mamlakatimiz moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, iktisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalariga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

YUrtimizda 2010 yilni "**Barkamol avlod yili**" deb e'lon qilganimizdan yaxshi xabardorsiz, - dedi Prezidentimiz. Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib ko'yganmiz.

² Президент Ислам Каримовнинг 2009 йилнинг асосий якунлари ва 2010 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. “Туркистон” газетаси, 30 январь 2010 йил сони.

SHu kunlarda hukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi ana shu ezgu maqsadga erishish yo'lida, jami davlat va nodavlat manbalarini hisobga olgan holda, mavjud barcha resurs va imkoniyatlarimizni safarbar etishni ko'zda tutadi.

YUqoridagi ijtimoiy talablarga ko'ra, maktab musiqa mashg'ulotlari birinchi-ettinchi sinflarda olib boriladi va har bir dars mashg'uloti turli faoliyatlarni bajarish, amalga oshirish orqali o'tkaziladi.

Musiqiy faoliyatlar – 1) kuylash, 2) musiqa tinglash, 3) musiqa savodi, qo'shimchalari esa: musiqiy ritmik harakatlar, bolalar o'yinchoq cholg'u asboblarida ijro etish, musiqiy ijodkorlik, cholg'u sozlari bilan tanishish, musiqa tarixiga oid materiallar bilan tanishish va boshqa turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

SHularga qaramasdan, musiqa darsining maktabdagi boshqa fanlardan farq qiladigan jihati, unda amaliy faoliyat, ya'ni, ijroviy faoliyatni amalga oshirish, badiiy jarayonni tashkil etishdir.

Ushbu badiiy jarayonni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Birinchi, kuylash yoki tinglash faoliyatini amalga oshirish uchun o'quvchilar jamoasida qulay ruhiy-hissiy muhit, qulay vaziyat bo'lishi zarur.

Ikkinchi, bolalar kuylash yoki tinglash faoliyatiga oldindan tayyorlanishi, ularda maqbul kayfiyat va ruhiy holat bo'lishi darkor.

Uchinchi, kuylanadigan asar bolalar uchun ma'lum darajada qiziqarli bo'lishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchi, musiqa o'qituvchisi ushbu asarni bolalarga etkazish mahoratiga ega bo'lishi, ularni kuylash faoliyatiga qiziqтира olishi muhimdir.

SHuningdek, kuylash faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlashda o'quvchilardagi mavjud musiqiy qobiliyatlar muhim rol o'ynaydi.

Qobiliyatlar shaxsning shunday individual psixik xususiyatlariki, bilim, malaka va ko'nikma orttirish aynan qobiliyatlar darajasiga bog'liq. Lekin bu xususiyatlarning o'zi bilim, ko'nikma, malakaga bog'liq bo'lmaydi. Qobiliyatlar bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashda namoyon bo'ladi. Malaka, ko'nikma va bilimlar uchun qobiliyat asos bo'lib hisoblanadi. Uning asosida esa imkoniyat va layoqat yotadi. Inson qobiliyati bilim, ko'nikma va malakalar uchun imkoniyat ekan, shu imkoniyat asosida bilim, ko'nikma va malaka egallash ko'p narsaga, jumladan, ta'limni tashkil etish samaradorligiga va ma'lum muhit sharoitga bog'liq.

Musiqiy qobiliyatlar musiqiy faoliyat imkoniyatlaridan iborat bo'lib, ularning rivojlanib, takomillashib borishi uchun ham ichki va tashki sharoit kerak, bu esa faqat musiqiy faoliyatning o'zida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki aqliy taraqqiyot ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshadi. Hozir bir masalani mustaqil hal eta olmagan bola kattalar yordamida uni hal etadi. Tajriba hosil qilgandan keyin mustaqil bajarishni ham o'rganib oladi. SHuning uchun ham tadqiqotchilar inson qobiliyatini aniqlash uchun uni kamida uch marta tadqiq qilishni tavsiya etadi. Birinchi marta beriladigan topshiriqni mustaqil hal etish, ikkinchi marta kattalar yordamida hal etish, uchinchi martada esa tuzatilgan va anglangan holda mustaqil bajarish amalga oshiriladi.

Jumladan, bolaning musiqiy qobiliyatini ham kamida uch marotaba o'rganish natijalarini taqqoslash yo'li bilan aniqlash maqsadga muvofiq.

Agar har uch galda ham bolada sifat o'zgarishi bir xil bo'lsa, bunda bola qobiliyati yuksak emasligi haqida xulosa qilish mumkin.

Inson musiqiy layoqatining rivojlanib musiqiy qobiliyatga aylanishiga va uning yanada rivojlanishida shaxsning qiziqishlari asosiy omil hisoblanadi.

Kuylash faoliyatini amalga oshirishda o'quvchilardagi ovoz imkoniyatlari muhimdir. SHuningdek, ushbu faoliyatda jamoaviy faoliyat, ya'ni kuylashga ehtiyoj, bolalarning bir-birini tinglab, faoliyatni amalga oshirish istagi bo'lishi zarur.

Tinglash faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'quvchilarda musiqiy eshitish tasavvurlari mavjud bo'lishi, tinglash ehtiyoji, ma'lum musiqa janrlarini tinglashga nisbatan qiziqish mavjudligi muhimdir.

Bundan tashqari, tinglashda turli musiqa asarlari, janrlari, yo'nalishlari, turli tarkibdagi ansambllar, orkestrlar ijrosini tinglashda ularni farqlagan holda, ko'p ovozli musiqani tinglash ehtiyoji, garmonik eshitish qobiliyati kabilar mavjudligi maqsadga muvofiqdir.

Maktab darsliklarida **tinglash uchun** keltirilgan musiqa asarlarini tahliliy ko'rib chiqamiz:

➤ Birinchi sinfda keltirilgan musiqiy materiallarning asosiy qismi tinglash uchun mo'ljallangan. Jumladan, tinglash materiallari O'zbekiston Davlat madhiyasi bilan boshlanadi, shuningdek, F.Nazarov musiqasi bilan "YUrish marshi", xalq kuyi "Do'loncha", J.Najmiddinov musiqasi bilan "Pianino", S.Abramova musiqasi bilan "Kuz", xalq kuyi "CHertmak", M.Mirzaev musiqasi bilan "Bahor vals" asarlari bor.

➤ Ikkinchi sinfda xalq kuyi “Dutor bayoti”, xalq kuyi “Qari navo”, D.Zokirov qayta ishlagan “Gulxan”, o‘zbek xalq qo‘shig‘i “CHamandagul”, xalq kuyi “Norim-norim”, xalq kuyi “Xorazm lazgisi”, Il.Akbarov musiqasi bilan “Gullola”, SH.YOrmatov musiqasi bilan “Sog‘lom avlod qo‘shig‘i”, A.Muhamedova musiqasi bilan “SHohi so‘zana”, xalq kuyi “Gulbahor”, N.Norxo‘jaev musiqasi bilan “O‘zbekimdan aylanay”, Ik.Akbarov musiqasi bilan “Bahor”, A.Mansurov musiqasi bilan “Muzqaymoq”, xalq qo‘shig‘i “Boychechak”, D.Omonullaeva musiqasi bilan “Vatanjonim-vatanim”, H.Raximov musiqasi bilan “Bolalar”, M.Glinkaning “Polka” kabi asarlari keltirilgan.

➤ Uchinchi sinfda xalq kuyi “Andijon polkasi”, “Xorazm lazgisi”, xalq qo‘shig‘i “SHunisida bir gap bor?”, xalq kuyi “Farg‘onacha”, uyg‘ur xalq qo‘shig‘i “Ona orzusi”, A.Mansurov musiqasi bilan “Piyoda askarlar qo‘shig‘i”, G‘.Qo‘chqorov musiqasi bilan “SHodiyona”, xalq kuyi “Samoi dugoh”, xalq kuyi “Zafar”, xalq kuyi “Dil kuyi”, xalq kuyi “SHodlik”, M.Mirzaev musiqasi bilan “Bahor valsii”, xalq kuyi “Hoy, lola”, tojik xalq kuyi “Garduni segoh”, xalq kuyi “Usmoniya”, P.CHaykovskiyning “YOg‘och soldatchalar marshi” asarlari taqdim etilgan.

➤ To‘rtinchi sinfda xalq kuyi “YAllama yorim”, “Ajam 2” taronasi, xalq kuyi “SHodiyona”, “Alla”lar, “YOr-yor» lar, xalq kuyi “CHarx”, xalq kuyi “Norim-norim”, xalq kuyi “Mirzadavlat 1”, A.Mansurov musiqasi bilan “Qorbo‘ron”, “Ramazon aytimlari”, xalq kuyi “Navro‘zi ajam”, F.Soodiqov musiqasi bilan “Qorabayir” kabi asarlar keltirilgan.

SHu bilan tinglash uchun keltirilgan boshlang‘ich sinflar materiallarini ko‘rib chiqishni yakunlaymiz va o‘rta sinflarga o‘tamiz.

➤ Beshinchi sinf darsligida M.Bafoevning “Poema”, T.Qurbonovning “Sevinch”, F.Alimovning “SHodiyona”, B.Umidjonovning “O‘zgancha” jo‘rsiz xor asari, D.Omonullaevning “CHildirma chalay”, B.Umidjonovning “Oq kaptar”, M.Bafoevning “Naqshlar”, T.Qurbonovning “To‘yona”, M.Tojievning 3-simfoniyasidan parcha, A.Mansurovning “Navro‘z bayramiga” uvertyurasidan parcha, S.YUdakovning “Mirzacho‘l” vokal-vokal simfonik syuitasidan parcha, L.Betxovenning 5-simfoniyasidan parcha, M.Burhonovning A.Navoiyga qasida”sidan parcha, S.YUdakovning “Mening Vatanim” kantatasidan parcha, sinf fonotekasidan opera, balet, musiqali drama va komediya, bolalar uchun ertak-tomoshalardan parchalar, P.CHaykovskiyning “Oqqush ko‘li” baletidan parcha, U.Musaevning “To‘maris” baletidan parcha, M.Mirzaev musiqasi bilan “Bahor vals”, T.Jalilovning “Tohir va Zuhra” musiqali dramasiidan parcha, sinf fonotekasidan “To‘ylar muborak” va “Otmagay tong” qo‘shiqlari, sinf fonotekasidan “Toshbolta oshiq” musiqali komediyasidan parcha, sinf fonotekasidan “Arshin mol-olon” musiqali dramasiidan parchalar, F.Alimovning “Fotima va Zuhra” musiqali dramasiidan parcha, A.Nabievning “Fotimaning sarguzashtlari” musiqali ertagini tomosha qilish, M.Glinkaning “Ruslan va Lyudmila” operasiidan parcha, J.Verdining “Aida” va “Rigoletto” operalaridan parchalar, V.Motsartning “Sehrli nay” operasiidan “Qaerdan taralmoqda bu totli navo” qo‘shig‘i, J.Bizening “Karmen” operasiga uvertyurasiga muqaddima, o‘zbek operalaridan ariya va qo‘shiqlar, sinf fonotekasidan “Dilorom” operasiidan ariya va duetlar, sinf fonotekasidan “Maysaraning ishi” operasiidan parchalar, sinf fonotekasidan A.Mansurovning “Hayvonlar sultoni” operasi singari asarlar taqdim etilgan.

➤ Oltinchi sinf darsligida xalq kuyi "Dilxiroj", Buzruk maomidan "Tasnifi Buzruk", Bayot, Mushkiloti Dugoh, "Rustamxon" dostonidan namunalar, opera yoki simfoniyalardan parchalar, R.Abdullaev musiqasi bilan "Mustaqillik lolalarimiz", A.Mansurovning "O'zbekiston ona-onajon", "YAla" guruhi ijrosida qo'shiq, D.Omonullaeva musiqasi bilan "SHarq taronasi" madhiyasi, eron xalq musiqasidan namunalar, arab xalq musiqasidan namuna, xitoy va uyg'ur xalq musiqalaridan namunalar, yapon xalq musiqasidan namuna, qozoq va qirg'iz xalq musiqasidan namunalar, shavrq xalqlari musiqasi namunalari, L.Betxovenning "Elizaga", V.Motsartning "Bahor sog'inchi", V.Motsartning 40-simfoniyasidan parcha, L.Betxovenning "Qahramonlik" 3-simfoniyasidan parcha, F.SHopen asarlaridan namunalar, M.Glinka asarlaridan namunalar, evropa mumtoz musiqalaridan namunalar tinglash tavsiya qilingan.

➤ Ettinchi sinf darsligida - "Do'mbira kuyi", "Baljuvon" kuyi, "Mavrigi", "Ufor" kuyi, "SHodiyona" kuyi, "YAlama yorim", "Tanovor 1", "YUz bir" kuyi, "Ovozing seni" nomli aytim, "Ganji qorabog'", "Savti suvora 1", "Samoi dugoh", "Qo'shchinor", "Tasnifi rost"dan parcha, "Mo'g'o'lchai dugoh qashqarchasi", "Saraxbori segoh", "Nasrulloiy", Xorazm maqomlaridan "Peshrav" kuyi, "Qari navo", "Navo naqshi", "Nasrullo 1", "Segoh" kuyi, "Dugoh-husayn 1" singari asarlar keltirilgan.

Musiqqa savodi faoliyati bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar asosan musiqaning nazariy jihatlarini o'rganish, musiqiy ohanglarning nota yozuvlarida ifodalanishi, ladlar, tonalliklar, intervallar, tovush cho'zimi, musiqqa asarining ma'lum qismini takrorlashni amalga oshirish belgilaridan iborat bo'ladi.

Sinflar bo'yicha olganda, boshlang'ich sinflarda quyidagi manzara kuzatiladi:

❖ Birinchi sinfda unli va undosh tovushlarning kuylanishi, milliy cholg'ular bilan tanishish, tovushlar nomini o'ngga va chapga qarab aytish, baland va mayin, kuchli va yo'g'on tovushlar, ansambl, orkestr, solist, sol kaliti, bastakor, shoir, sozanda va xonanda, tovushlarning uzun-qisqaligi, notalarning nota chizig'ida joylashishi, milliy cholg'u sozlar, chorak, nimchorak, yarim va butun notalar, notalarni aniqlash bo'yicha rebus-o'yinlar, kompozitorlardan M.Burhonov, F.Nazarov, YU.Rajabiy, G'.Qodirov, M.Mirzaev, shuningdek, nota nomlarini topish bo'yicha topishmoqlar keltirilgan.

❖ Ikkinchi sinfda nota cho'zimlari, ularni sanab kuylash, chorak va nimchorak pauzalar, takt, takt chizig'i, cholg'u sozlari, kompozitorlardan II.Akbarov, SH.YOrmatov, A.Mansurov, N.Norxo'jaev, D.Omonullaeva, M.Glinka, major va minor, dirijyorlik mashqlari, qaytarish belgisi, kuy va uning tuzilishi tahlil etiladi.

❖ Uchinchi sinfda kompozitorlardan R.Abdullaev, F.Alimov, H.Rahimov, L.Mujdaboeva, P.CHaykovskiy, dirijyorlik harakatlari mashqlari, chorak va nimchorak pauzalar, xor asari va jamoasi, orkestr, major va minor, o'n oltitalik nota, uchtovushlik, nuqtali nota, alteratsiya belgilari, musiqadagi dinamik belgilar, major va minor uchtovushligi (111-bet), milliy cholg'u sozlari, repriza, o'zgaruvchan va o'zgarilmas qaytarish, sinkopa, alteratsiya belgilari o'rganiladi.

❖ To'rtinchi sinfda - o'lchovlar, qo'shiq janri, do major tovushqatori, alteratsiya belgilari, milliy cholg'u sozlari, mashhur sozandalar suratlari,

bastakorlardan T.Jalilov, I.Ikromov, K.Jabborov, F.Sodiqov, aytim, pauza, damli va zarbli cholg'ular, minor tovushqatori, doyra cholg'usi, alla, 6/8 o'lchovi, notaga qarab kuylash mashqlari keltirilgan.

O'rta sinflar darsliklari bo'yicha quyidagi manzara kuzatiladi:

❖ Beshinchi sinfda - shovqinli va musiqiy tovushlar xususiyatlari, orkestr va uning turlari, shovqinli va musiqiy tovushlar haqida materiallar, musiqada kalitlar, nota cho'zimlari va ularning yozilishi, tovushqatorlar va oktavalari, ton va yarim tonliklar, musiqada alteratsiya belgilari, partitura va klavirlar, musiqada dinamik belgilar, nota cho'zimlarini uzaytiruvchi belgilar, musiqada pauzalar, intervallar haqida tushuncha, musiqada qaytarish va tinish belgilari, kantata va oratoriyalar, ritm (usul), takt va takt chizig'i, musiqada o'lchovlar, nota cho'zimlarini taktlarga bo'lish, dirijyorlik san'ati, 2/4, 3/4 va 4/4 chorakli o'lchovlarda dirijyorlik qilish borasida materiallar keltirilgan.

❖ Oltinchi sinfda – asosan berilgan turli tonallik, o'lchov va xarakterdagi mashqlarni dirijyorlik qilib kuylash amalga oshiriladi.

❖ Ettinchi sinfda – intervallar, pauzalar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, tayanch parada (tonika), yarim ton va butun ton, major tovushqatori, tabiiy minor, usul, xonandalardan M.SHeroziy, J.Sultonov, bastakorlar YU.Rajabiy, SHoberdi baxshi Boltaev, Hoji Abdulaziz Rasulov, Bola baxshi Abdullaev, Fozil Yo'ldosh o'g'li, tanburchi T.Alimatov, qashqarcha usuli, buzruk maqomi tovushqatori, rost maqomi tovushqatori, ufor, dugoh maqomi tovushqatori, segoh maqomi tovushqatori, iroq maqomi tovushqatori, intervallar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, usullar haqidagi bilimlarni mustahkamlash, tabiiy major tuzugi (tovushqatori), tabiiy minor

tuzugi (tovushqatori), dinamik belgilar, ufar haqidagi bilimlarni mustahkamlash kabi materiallar keltirilgan.

Kuylash faoliyati murakkab ijodi jarayon bo‘lib, o‘quvchilarning ijro etiladigan asar ichki holatiga kirishi, uning mazmunini to‘la his etishi bilan bog‘liqdir, shuningdek, ijro jarayonida qulay ruhiy hissiy vaziyat bo‘lishi ham zaruriy talablardan biridir.

Maktab darsliklarida **kuylash** uchun taqdim etilgan asarlar tahliliga o‘tamiz:

❖ Birinchi sinfda SH.YOrmatov musiqasi bilan “Salom maktab”, xalq kuyi va so‘zi bilan “CHittigul”, T.Toshmatov musiqasi bilan “Baxtiy erkatoy”, K.Kenjaev musiqasi bilan “Kichkintoymiz-gijing toymiz”, G‘.Qodirov musiqasi bilan “Binafsha”, N.Norxo‘jaev musiqalari bilan “Salom bergan bolalar” va “Do‘ppi kiygan bola”, “Kakligim”, J.Najmiddinov musiqasi bilan “Pianino”, S.Abramova musiqalari bilan “Kuz” va “Qo‘g‘irchog‘im”, xalq musiqasi bilan “Osmondagi oy”, F.Nazarov musiqasi bilan “Paxtaoy”, D.Omonullaeva musiqasi bilan “Etikcham” va boshqa asarlar keltirilgan.

❖ Ikkinchi sinfda J.Najmiddinov musiqalari bilan “Bolalar va g‘ozlar” va “Arg‘imchoq”, T.Toshmatov musiqasi bilan “Ayiqlar bog‘chasi”, F.Nazarov musiqalari bilan “Maktabim” va “Paxtaoyning bayrami”, H.Muhamedova musiqasi bilan “Kakku”, N.Norxo‘jaev musiqalari bilan “Kitobim qo‘limda”, “Hakkalar” va “Navro‘zim – sho‘x sozim”, S.Abramova musiqalari bilan “Soatim” va “Onajonim”, Il.Akbarov musiqalari bilan “O‘ynaylik”, “Gul teremiz” va “Archa bayrami”, K.Kenjaev musiqasi bilan “Kichkintoymiz – gijing toymiz”, G‘.Qodirov musiqasi bilan

“Ota-onalarga”, A.Mansurov musiqasi bilan “Dakan xo‘roz”, D.Omonullaeva musiqasi bilan “Onajonim”, H.Rahimov musiqasi bilan “Tilla qo‘ng‘iz”, M.Burhonov musiqasi bilan “Kapalak” shular jumlasidandir.

❖ Uchinchi sinf darsligida R.Abdullaevning “Qo‘zichoq”, F.Nazarovning “YOZ”, “Ko‘ylagim”, D.Omonullaevaning “Vatanjonim-vatanim”, N.Norxo‘jaevning “Oltin paxtam oppog‘im”, I.Hamroevning “Kakku”, F.Alimovning “oppoq qandim”, A.Muhamedovning “Besh baho”, G‘.Qldirovning “Quvnoq bolalar qo‘shig‘i”, SH.YOrmatovning “Qor”, A.Mansurovning “Piyoda askarlar qo‘shig‘i”, S.Abramovaning “Qorbo‘ron o‘ynaymiz”, H.Rahimovning “Men-g‘unchaman”, G‘.Qodirovning “Bobom ulug‘ yoshida”, L.Mujdaboevaning “YAlpiz”, “Navro‘z keldi”, T.Toshmatovning “Baxtiy erkato‘y”, S.Ne‘matovning “Svetofo‘r”, N.Norxo‘jaevning “Keng Turkiston” qo‘shiqlari o‘rganiladi.

❖ To‘rtinchi sinfda A.Mansurovning “Hur Respublikam”, L.Mujdaboevaning “O‘zbekistonim”, F.Nazarovning “Maktabim”, S.Jalilning “Temur bobom-mening bobom”, N.Norxo‘jaevning “YAXshi bola”, “Biz askarmiz”, K.Kenjaevning “Xat yozaman do‘stimga”, A.Muhamedovning “Archa qo‘shig‘i”, N.Norxo‘javening “Sovuq kimni izlaydi?”, “Gullar manim kulganim”, D.Omonullaevaning “Nisholda”, M.Nasimovning “Bulbulcha” qo‘shiqlari bor.

O‘rta sinflar darsliklarida quyidagi asarlar keltirilgan:

❖ Beshinchi sinf darsligida S.Boboevning “Aziz ustozlar”, o‘zbek xalq qo‘shig‘i “Boychechak”, A.Mansurovning “Hur Respublikam”, “Oltin kuz qo‘shig‘i”, “Quyosh bilan suhbat”, “YOshlar ramziy qo‘shig‘i”, “Xayr,

maktabjon”, A.Rasulovning “CHumoli”, SH.Ramazonovning “O‘zbekistonim”, SH.YOrmatovning “Sumalak”, A.Varelasning “Oppoq qushey, oppoq qush”, G‘.Qodirovning “ona qo‘llari”, N.Norxo‘jaevning “CHamandagi gullarmiz”, “Zavqing soch, qaldirg‘och”, R.Vbdullaevning “Parvozdagi qushchalar”, SH.YOrmatovning “Oymomajon rom bo‘ldi” qo‘shiqlari bor.

❖ Oltinchi sinfda H.Rahimovning “Bolalar”, N.Norxo‘jaevning “Munajjim bobom”, “O‘zbekiston abadiy bahorim”, G.Qo‘chqorovanning “O‘zbekimdan aylanay”, X.Hasanovanning “O‘zbekiston - jannat”, D.Omonullaevaning “SHarq taronasi” madhiyasi, M.Otajonov musiqasi bilan “Ilm istang”, A.Mansurovning “Istiqlolim”, “O‘zbekiston ona-onajon”, “Bizga vatan jon vatan” qo‘shiqlari keltirilgan.

❖ Ettinchi sinf darsligida M.Otajonovning “O‘zbekiston onajon”, R.Abdullaevning “Mustaqillik lolalarimiz”, o‘zbek xalq qo‘shig‘i “Ey nozanin”, H.Rahimovning “Buxoro”, “Samarqand”, “YUrtga sadoqat”, N.Norxo‘jaevning “YOshlik sening parvozingdir”, “Vatanim zavqi”, “YOshliq zavqi”, “Toshkent shahrim”, “O‘zbekimdan aylanay”, “Keng Turkiston”, “Bahor madhi”, F.Alimovning “Ona tilim-o‘zbek tilim”, Q.Mamirovning “Bahor sarvinoz”, D.Omonullaevaning “Turkiston farzandimiz”, A.Mansurovning “Vatanginam”, F.Alimovning “O‘z yurtini sayr etsang” kabi qo‘shiq va ashulalar kiritilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab musiqa darsliklarida barcha musiqiy faoliyatlar uchun mo‘ljallangan materiallar ma’lum izchillik asosida, mantiqiy tarzda joylashtirilgan bo‘lib, ushbu materiallarni o‘quvchilarga to‘laqonli tarzda etkazish va ularda ushbu faoliyatlarga

nisbatan qiziqishlarni shakllantirish uchun musiqa o'qituvchisi oldida katta pedagogik vazifa ko'ndalang turadi. Bu vazifani to'la bajarish o'quvchilarning komil inson bo'lib shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

§ 1.2. Musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari.

YUqoridagi birinchi paragrafda biz musiqa darsida amalga oshiriladigan musiqiy faoliyatlar bo'yicha ilmiy-musiqiy materiallar hamda ularning badiiy-estetik xususiyatlari to'g'risida fikr yuritdik.

Ushbu paragrafda barcha musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlari, ya'ni, ularni amalga oshirishda musiqa o'qituvchisidan talab qilinadigan pedagogik faoliyat, pedagogik ish usullari, o'quvchilar bilan ijodiy jarayonni amalga oshirish imkoniyatlari va metodlari to'g'risida tahliliy fikrlarni bayon etamiz.

Pedagogikada rivojlantiruvchi ta'lim metodlari keng qo'llaniladi va ular har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Musiqqa ta'limi bu yo'nalishda murakkab fanlardan biri bo'lib, mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilardan bir nechta faoliyatlarni amalga oshirish talab qilinadi. SHu bois, rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillarini amalga oshirish uchun har bir darsning maqsadini aniq belgilab olish, dars komponentlarini to'g'ri joylashtirish, dars jarayonida aynan rivojlantiruvchi xususiyatlar nimalar orqali amalga oshirilishini ko'z oldiga keltirgan holda mashg'ulotni tashkil etish lozim.

Jumladan, o'rganiladigan qo'shiq, uning mualliflari, ma'lum kompozitor ijodi va faoliyati to'g'risida ma'lumotlar berish, musiqa savodxonligi bo'yicha materiallarni singdirish, musiqa tinglash faoliyatini amalga oshirish, ritmik harakatlarni bajarish, cholg'u sozlari borasida bilimlarni singdirish yaxlit jarayon bo'lib, ushbu jarayonning har bir tarkibiy qismi bir-

biri bilan mantiqiy bog‘liq tarzda tashkil etilsa, o‘quv mashg‘ulotining umumiy vazifasini a‘lo darajada amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Musiqqa darslarini sifatli tashkil etish o‘qituvchidan katta iqtidor, pedagogik mahorat va o‘z ustida tinimsiz ishlashni talab etadi. Jumladan, bolalar bilan musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish birgina kuylash yoki tinglash emas, balki, musiqqa savodxonligi, cholg‘u sozlarini bilish, kompozitorlarning biografiasini va eng sara asarlari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lib borishni talab qiladi. Buning uchun esa, o‘qituvchi avvalo o‘z ustida tinimsiz ishlash orqali ushbu ilmiy materiallar borasida tasavvurga ega bo‘lishi, shuningdek, bolalarni musiqiy faoliyatlarga qiziqitira olishi kerak. Bularsiz musiqiy faoliyatlar samarasiz bo‘lib qolishi hech gap emas.

Ayrim ustozlar bolalarni musiqiy faoliyatlarga qiziqitirish uchun ularga avval engil qabul qilinadigan, so‘ngra esa murakkablashib boradigan repertuar orqali ta‘sir qilish lozimligini ta‘kidlashadi. Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari, ya‘ni, boshqa o‘qituvchilar bolalarni musiqqa oshno qilish, ularga jiddiy, mumtoz musiqqa borasida bilim va tasavvurlarni singdirish uchun murakkab, chuqur badiiy mazmunga ega bo‘lgan, idrok etish uchun ancha bilim va tajriba talab qilinadigan repertuarni taklif qilish kerak, degan fikrni bildiradilar.

Ushbu har ikkala yo‘nalish tarafdorlarining ham fikrlarida jon bor. Agar birinchi yo‘nalish fikrini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ta‘limdagi uzviylik, engildan murakkabga tamoyili amal qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi yo‘nalish tarafdorlari fikriga qaraydigan bo‘lsak, ular engil asar bilan bola vaqtini olmasdan, to‘g‘ridan to‘g‘ri murakkabroq asarlarni ularga

tinglatib yoki kuylatib, musiqiy bilim va malakalarini oshirib borish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlashlarini sezish qiyin emas.

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari ta'limdagi uzviylik tamoyilini sal o'zgartirib, nisbatan murakkab asar bilan bolalarni oshno qilish zarurligini, bu esa ularning musiqiy bilimlari tez sur'at bilan o'sib borishiga imkon yaratishini ta'kidlamoqchi bo'ladilar.

Hozirgi kunda rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari turli usul va shakllarni taklif etadi, bu borada turli pedagoglarning rang - barang fikrlarini ko'rish mumkin. SHuningdek, har bir fan xususiyatini o'zida aks ettiradigan universal metodikalar har safar ham o'zini oqlamaydi. CHunki, fanlar materiali va ularni etkazish hamda o'zlashtirish turlicha tarzda amalga oshiriladi. Bu esa har bir fan uchun xususiy metodikalar zarurligini namoyon etadi.

Musiqqa fani maktabdagi barcha ta'lim fanlari orasida o'zining universalligi, o'tmish va zamonaviylikni uyg'un tarzda aks ettira olish imkoniyati, kuylash va tinglash faoliyatini amalga oshirishda audiovizual idrok yuzaga chiqishi bilan o'ziga xosdir.

Ushbu fanning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi omillardan yana biri, bu kuylash faoliyati o'quvchidan musiqiy tinglash, ritm va musiqiy xotirani, shuningdek, kuylash ichki kechinmalar, hissiy holat orqali bajarilishini talab etishini taqozo etadi. SHu jihati orqali musiqiy faoliyatlar barcha boshqa faoliyatlardan o'zining individualligi, inson ichki olamiga qaratilganligi, uning kechinmalari va emotsionalligi orqali amalga oshishi bilan ajralib turadi.

Musiqqa o'qitish sifatini oshirish bu zamonaviy musiqqa o'qituvchisiga ko'p darajada bog'liq, bundan tashqari, texnika vositalari, shinam musiqqa kabineti, audiovideo apparaturalar mavjudligi ham dars sifatiga ta'sir qiladi. Lekin, ularning hech biri o'z fan sohasini butun vujudi bilan sevadigan, fidoyi o'qituvchidan ustun turmaydi. Chunki, fidokor o'qituvchi, pedagog bolalarni musiqaning sehrli olamiga olib kira oladi, ularni bu sehrli olamning sir - sinoatlari bilan tanishtirish quvvatiga egadir.

SHu boisdan ham musiqqa pedagogikasiga bugungi kunda katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizdagi deyarli barcha pedagogika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida musiqqa ta'lim yo'nalishi mavjud bo'lib, ular mamlakatimizning umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini uchun oliy malakali pedagog kadrlar etishtirib berishga qaratilgan. O'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

Musiqiy faoliyatlar o'z tuzilishi, amalga oshirilishi va bayoni jihatidan murakkab faoliyatlar turiga kiradi. Bunda o'qituvchining pedagogik va kasbiy mahorati, o'z kasbiga nisbatan munosabati, bilimi muhim o'rin tutadi.

Jumladan, musiqaning nazariy asoslari bo'yicha materiallarni o'quvchilarga etkazish uchun quyidagicha ish tutish mumkin. Tovushlarning o'z balandligiga qarab joylashishi tovushqator, tovush esa uning pog'onasi deyiladi, degan qoidani o'rgatishda ushbu tovushlarni o'z ijrosida ko'rsatish, tovushlarning yuqori va pastlashishida tovush kuchi ham o'zgartirilishi aytib va ko'rsatilib borilishi zarur.


Musiqaviy tuzilma haqida ma'lumotlar berganda, uning to'liq tovushqatori 88 ta xilma-xil tovushlarni o'z ichiga olishini, bu tovushlar, ya'ni, eng past tovushlardan eng yuqori tovushlargacha, 16 gs dan 4176 gs

tebranishga ega ekanligini aytgach, ularni cholg'uda, ya'ni fortepianoda ijro etib ko'rsatish kerak. So'ng ana shu tovushlar balandligi inson qulog'i qulay eshita oladigan tovushlar ekanligi tushuntirilishi lozim.

Insonning vokal ovozi taxminan 60 dan 1000 gs gacha bo'lgan diapazonda yangrashi bois, ko'pgina cholg'u sozlar aynan ushbu diapazonga egadir. Tovushlar bo'g'inli va harfiy nomlar bilan ataladi. Musiqaviy tuzilma tovushqatorining asosiy pog'onalariga ettita mustaqil nom berilgan:

Bo'g'in bilan	Do	Re	Mi	Fa	Sol	Lya	Si
	Do	Re	Mi	Fa	Sol	La	Si
Harfli	C	D	E	F	G	A	H

Asosiy bosqichlarga berilgan ushbu nomlar o'rta asrlarda shakllangan. Bu asosiy pog'onalar fortepianoning oq klavishlari tovushlariga mos keladi va ular 52 ta asosiy klavishlardan iborat:



До Ре Ми Фа Ля Си va h.k.

Tovushqatoridagi ettita asosiy pog'onaning nomi ma'lum bir vaqtda takrorlanib turadi va shu yo'l bilan barcha asosiy pog'onalar tovushlarini o'z ichiga qamrab oladi. Bu – yuqori tomon sanalgan, oq klavishlarda chiqariladigan har bir sakkizinchi tovush birinchi tovushga nisbatan ikki marta tezroq tebranishi natijasida hosil bo'ladi. Demak, u birinchi boshlang'ich tovushning ikkinchi yuqori toniga mos keladi va unga hamohang bo'lib eshitiladi.

Bir xil pogʻona yoki nomdagi tovushlar oraligʻiga oktava deyiladi. Bundan tashqari, tovushqatorning asosiy etti pogʻonasini oʻz ichiga olgan har bir qismi ham oktava deb aytiladi.

Butun tovushqator ettita toʻliq oktava va tovushqatorning ikki tomoni fortepiano klaviaturasining ikki chetida joylashib, toʻliq boʻlmagan ikki oktavani tashkil etuvchi toʻrtta tovushdan iborat. Oktavalar pastdan yuqoriga tomon quyidagicha ataladi: subkontroktava, kontroktava, katta oktava, kichik oktava, birinchi oktava, ikkinchi oktava, uchinchi oktava, toʻrtinchi oktava, beshinchi oktava.

Mazkur mavzular oʻtilganda oʻquvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Tovushqator deb nimaga aytiladi?
2. Oktava atamasi necha xil maʼnoda qoʻllaniladi?
3. Forteplano klaviaturasida nechta toʻliq oktava bor?

Har bir oktavaning 12 ta teng yarim tonlikka boʻlinganligi sababli, yarim ton musiqa tuzilmasi tovushlari orasidagi eng kichik oraliq hisoblanadi. Ikkita yarim tonlikdan hosil boʻlgan oraliqqa butun ton deyiladi.

Tovushqatorning asosiy pogʻonalari orasida ikkita yarim ton va beshta butun ton bor. Ular quyidagi tartibda joylashgan:

Do	Re	Mi	Fa	Sol	Lya	Si	(Do)
1 ton	1 ton	0,5 ton	1 ton	1 ton	1 ton	1 ton	0,5 ton

Forteplanning qora klavishlarini bosganda eshitilgan tovushlar bir tonliklarni yarim tonliklarga boʻladi. SHunday qilib, har bir oktava bir-biridan teng oraliqda joylashgan 12 ta tovushdan tarkib topadi.

Tovushqatorning har bir asosiy pogʻonasini koʻtarish yoki pasaytirish mumkin. Koʻtarilgan yoki pasaytirilgan pogʻonalar hosila pogʻonalar deyiladi. SHuning uchun hosila pogʻonalarning nomi asosiy pogʻonalar nomidan kelib chiqadi.

Asosiy pogʻona yarim tonga koʻtarilganda - diez belgisi, yarim tonga pasaytirilganda bemol belgisi qoʻyiladi. Agar tovush ikkita yarim tonga koʻtarilsa dubl-diez, masalan, fa – dubl diez; ikkita yarim tonga pasaytirilsa – dubl bemol, masalan, si-dubl-bemol deb yuritiladi.

Boʻgʻinli nomlari	Harfli nomlari				
	Asosiy bosqichlar	Diez	Dubl-diez	Bemol	Dubl-bemol
Do	C	Cis	cisis	Ces	Ceses
Re	D	Dis	disis	Des	Deses
Mi	E	Eis	eisis	Es	Eses
Fa	F	Fis	fisis	Fes	Feses
Sol	G	Gis	gisis	Ges	Geses
Lya	A	Ais	aisis	As	Ases
Si	H	His	hisis	B	Heses

Asosiy pogʻonalarning yuqorida koʻrsatilgan tartibda koʻtarilish va pasayishiga alteratsiya³ deyiladi. Ushbu mavzu oʻtilganda quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Musiqaviy soz deb nimaga aytiladi?
2. YArim tonni tushuntiring.
3. Butun tonni taʼriflang.
4. Alteratsiya belgilari nimani ifodalaydi?

³ **Альтерация** – ўзгартириш маъносини билдиради.

Tovushlar qatorining eng past tovushdan eng yuqori tovushgacha boʻlgan umumiy hajmi musiqiy diapazon deyiladi. Inson tovushi yoki cholgʻu sozining diapazoni deganda ular ifodalay oladigan umumiy musiqiy diapazon nazarda tutiladi.

Tovush ikki baravar koʻtarilganda, asosiy pogʻona ikki marta yarim tonga koʻtariladi yoki ikki baravar pasaytirilganda ham shu holni koʻramiz. Masalan, fa-dubl diez bilan sol; mi-dubl-diez bilan fa-diez; mi dubl bemol bilan re; do-dubl bemol bilan si bemol va h.k.

Musika amaliyotida tovushlarni boʻgʻin bilan yozishdan tashqari, lotin alfaviti asosida harf bilan yozish usuli ham qoʻllaniladi.

Etti asosiy pogʻona quyidagicha belgilanadi.

C	D	E	F	G	A	H
Do	Re	Mi	Fa	sol	lya	si

Nota tovushlarining harfli tuzilmasi lotin alfavitiga asoslangan. Nota choʻzimlari borasida oʻquvchilarga beshinchi sinfda maʼlumotlar beriladi.

Tovushlarning xilma-xil choʻzimini belgilar bilan koʻrsatish uchun bu doirachalarga vertikal tayoqchalar (shtillar), bayroqchalar, qisqa choʻzimli tovushlarni bir guruhga birlashtirish uchun esa qovurgʻachalar - qoʻshimcha gorizontaal chiziqchalar qoʻshib yoziladi.


Tovushlarning balandligini aniqlash uchun notalar beshta parallel chiziqdan iborat nota yoʻliga joylashtiriladi. Chiziqlar pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Nota yoʻlining boshlanish qismida besh chiziqni birlashtiruvchi vertikal chiziq qoʻyiladi. Bu chiziq boshlangʻich chiziq deb aytiladi.

Notalar nota yoʻlidagi chiziqlar ustida va oraligʻida yoziladi. Masalan:



Tovush cho‘zimlarining nomlari va ularning nota bilan yozilishi borasidagi materiallar ikkinchi sinfda o‘rgatiladi:

Eng katta cho‘zimli tovush - butun nota (1)



Butun cho‘zimli tovushning ikki marta qisqargani – yarimtalik nota (2)

Yarimtalikning ikki marta qisqargani – chorak nota (4)



Chorakning ikki marta qisqargani – nimchorak nota (8)



Nimchorak notaning ikki marta qisqargani – o‘n oltitalik nota (16)

O‘n oltitalik notaning ikki marta qisqargani – o‘ttiz ikkitalik nota (32)

O‘ttiz ikkitalik notaning ikki marta qisqargani – oltmish to‘rttalik nota (64) va h.k.



Nota yozuvida asosiy chiziqlardan tashqari, ayrim notalar uchun qisqa qo‘shimcha chiziqlar ham ishlatiladi. Ular nota yo‘lining ostiga va ustiga yoziladi.




Notalar guruhlariga birlashtirilganda tayoqcha va qovurg‘achalarni yozish uchun qulay o‘rin tanlanadi. Bunda ularni nota yo‘lining o‘rta qismiga yozishga harakat qilish zarur.


Nota yoʻlidagi chiziqlar ustiga va oraligʻiga tovushlarning muayyan balandligi maxsus belgi bilan biriktiriladi va bunga kalit deyiladi. Kalit nota yoʻlining boshida asosiy chiziqlarning biriga qoʻyiladi. Bunda biror asosiy chiziq kalit markazini kesib oʻtishi shart. Kalit ana shu chiziqda joylashgan notaga muayyan tovush (pogʻona) balandligini (nomini) belgilaydi, nota yoʻlidagi qolgan tovushlar joylashishi mana shu notaga moslanadi.

Asosan ikkita kalit keng qoʻllaniladi.

Skripka (sol) kaliti:



U ikkinchi chiziqda birinchi oktavaning sol tovushi balandligini belgilaydi. Bas (fa) kaliti: Toʻrtinchi chiziqda kichik oktavaning fa tovushi balandligini belgilaydi.








Qoʻshimcha chiziqlarni koʻpaytirmaslik uchun nota yozuvida xilma-xil kalit belgilaridan foydalaniladi. Bu esa nota yozuvining oʻqilishini osonlashtiradi.


Alteratsiya belgilari borasidagi maʼlumotlarni oʻquvchilarga etkazish toʻrtinchi sinfda amalga oshiriladi.

Alteratsiya belgilari beshta boʻladi: diez, dubl-diez, bemol, dubl-bemol va bekar (koʻtarilgan yoki pasaytirilgan tovushni oldingi holatiga qaytarish).

Ular quyidagicha yoziladi:

Diez –  Dubl diez – 
 Bemol –  dubl -bemol –  bekar - 

Alteratsiya belgilari nota chiziqlariga va oralig'iga yozilib, lozim bo'lganda notalar oldiga, shuningdek, kalitlarning o'ng tomoniga ham qo'yiladi. Masalan:



Kalitdan keyin qo'yilgan alteratsiya belgilari kalit alteratsiya belgisi, notalar oldidan qo'yiladigan belgi esa tasodifiy alteratsiya belgisi deyiladi.

Kalit alteratsiya belgilari o'z kuchini butun asar davomida va barcha oktavalarda saqlaydi. Tasodifiy alteratsiya belgisi esa o'z kuchini faqatgina bir takt davomida va o'z oldida turgan tovush uchungina saqlaydi, xolos. Mavzu doirasida o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Nechta alteratsiya belgisi bor?
2. Alteratsiya so'zining ma'nosi?
3. Dubl-bemol nimani anglatadi?
4. Kalit alteratsiya belgisi deganda nimani tushunasiz?
5. Tasodifiy alteratsiya belgisi nima maqsadda qo'llaniladi?

Tovushlarning asosiy cho'zimlaridan tashqari, nota yozuvida cho'zimlarni uzaytiruvchi qo'shimcha belgilar ham qo'llaniladi.

Bularga quyidagilar kiradi:


a) nuqta - biror tovush cho'zimini yarim baravar uzaytiradi, bu belgi nota doirachasining o'ng tomonidan qo'yiladi:



b) ikki nuqta – biror tovush cho'zimini yarim baravar va uning asosiy cho'zimidan yana chorak baravar uzaytiradi:



v) Liga – yonma-yon turgan bir xil balandlikdagi nota cho‘zimlarini birlashtiruvchi egri chiziq:



Bunday cho‘zimlarning davomiyligi ularning umumiy miqdoriga teng bo‘ladi.

g) fermato – tovush cho‘ziminin musiqi asari dramaturgiyasi va kuy xarakteri xususiyatlari orqali ma’lum vaqtga uzayishini ko‘rsatuvchi belgi. Fermato o‘rtasiga nuqta qo‘yilgan kichik yarim doira shaklida bo‘lib, nota ustiga yoki ostiga yoziladi:



Ushbu material bo‘yicha o‘quvchilarga quyidagicha savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Nuqtaning vazifasini aytib bering.
2. Ikki nuqta nima maqsadda qo‘llaniladi?
3. Liganing vazifasi nimadan iborat?
4. Fermato qay holatlarda qo‘yiladi?

O‘quvchilarga pauzalar haqidagi ma’lumotlar uchinchi va beshinchi sinflarda beriladi. Tovush yangrashining vaqtincha to‘xtalishi pauza deyiladi. Tovush cho‘zimlari qanday o‘lchansa, pauzalar davomiyligi ham shunday o‘lchanadi:


Butun pauzaning yozilishi:



YArim pauzaning yozilishi:



CHorak pauzaning yozilishi:




Sakkiztalik pauzaning yozilishi:

O'n oltitalik pauzaning yozilishi:



O'ttiz ikkitalik pauzaning yozilishi:



Pauzalarni uzaytirishda ham notalarda qo'llaniladigan nuqtalar qo'yiladi. Nuqtalarning ahamiyati bunda ham avvalgidek qoladi. Bu material bo'yicha o'quvchilarga quyidagicha savollar qo'yish mumkin:

1. Pauzaning ahamiyati nimadan iborat?
2. Pauzalar davomiyligi qanday o'lchanadi?
3. CHorak pauza qanday sanaladi?
4. YArim pauza qanday yoziladi?
5. Butun pazani sanang.

Bundan tashqari, zamonaviy darsning sifati ma'lum darajada o'quvchilar faolligi bilan aniqlanadi. O'quvchilar faolligi muammosi faqatgina qiziqishlarni ta'minlaydigan dars shakli va ma'lum metodlarni qo'llash bilan hal bo'lib qolmaydi. Ko'p narsa o'qituvchining har bir o'quvchiga yondashuviga ham bog'liq, bu esa o'qituvchi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Buning uchun o'qituvchi o'z o'quvchilarining qiziqishlari yo'nalishlarini bilishi zarur.

Musiqqa darsini maxsus texnika vositalarisiz tasavvur qilish qiyin. Darsda turli cholg'u asboblari, texnik va ko'rgazma vositalar zarur. Ular orqali o'quvchilar turli tarkibdagi orkestrlar, ansambllar, vokal-xor asarlari, mualliflari va asarlarning turli variantlardagi ijrolari bilan tanishadilar. Ularning sifati, o'z vaqtida tayyor bo'lishi va qo'llanishi ko'p hollarda musiqa darsining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Umuman olganda, bugungi kunda musiqa darslari barcha faoliyatlar turlari orqali o'ziga xos badiiy-estetik xususiyatlari bilan musiqa o'qituvchilarining diqqat markazida bo'lishi lozim.

SHuni nazarda tutish zarurki, biron - bir faoliyatga masalan, g'isht tashish, moshinani surish, yuk ko'tarish, er ag'darish yoki boshqa faoliyatlar bo'lsin, kishini majbur qilib bu ishlarni bajartirish mumkin. Biroq, badiiy yoki musiqiy faoliyatlar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, qo'shiq kuylash, kuy chalish, rasm chizish, she'r o'qishga kishini majbur qilib, bajartirishning iloji yo'q. Biroq, bo'lganda ham, bu bajarilgan ishning sifati talab darajasida bo'lmaydi.

Bugungi kunda musiqiy faoliyatlarni izchil, sifatli bajarishda o'quvchilar bilimlarining sayozligi quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- o'quvchilarning turli faoliyatlarni bir-biriga bog'liq holda tashkil etishga nisbatan ulgurmasligida;

- cholg'u sozlari va kuylash bo'yicha ma'lumotlarni aralashtirib yuborishida;

- ularda musiqaning turli faoliyatlarini izchil amalga oshirishga nisbatan bilimlarning nisbatan past darajada ekanligida.

Ushbu keltirilgan pedagogik muammolarning sabablari bizningcha, quyidagilardan iborat:

- darsda yuqorida sanab o'tilgan musiqiy faoliyatlarning asl maqsadi;
- ular asosida egallanadigan bilimlar;
- har bir faoliyatning ma'lum farqlari borasida alohida tushuncha berishda ko'pincha sustkashlikka yo'l qo'yilishi;

SHuningdek:

- milliy cholg‘u sozlarini izchil qo‘llash bo‘yicha;
- kompozitorlar hayoti va ijodi borasida;
- musiqa savodi bo‘yicha;
- ritmik harakatlar bo‘yicha;
- tinglash bo‘yicha hamda;
- kuylash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni singdirishda ushbu

faoliyatlarning ijobiy ahamiyati borasida alohida tushuncha berilmasligidir.

Bugungi kunda o‘quvchi-yoshlar musiqiy faoliyatlarni to‘la bajarishi va o‘zlashtirishi uchun uchun quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim:

- har bir musiqiy faoliyatni o‘ziga xos qirralari orqali o‘quvchilarga etkazish va ularda qiziqishni shakllantirish;
- o‘quvchilarda turli musiqa asarlarini tinglash ehtiyojini shakllantirish;
- o‘zbek milliy cholg‘u sozlari ijrosidagi asarlarga nisbatan o‘quvchilarda tinglash qiziqishini hosil qilish;
- bolalar musiqasining ommaviy axborot vositalari, radio va televidenie orqali targ‘ibotini kuchaytirish kabilardir.

YUqorida ta’kidlab o‘tganimiz, so‘zlarimning isboti sifatida shuni aytishim zarurki, mazkur o‘quv yilida asosiy musiqa asbobi fani bo‘yicha men taniqli o‘zbek kompozitori Mirsodiq Tojievning “SHarqona raqs” nomli fortepiano va chang uchun asarini ijro etdim. Ushbu asar uni tinglagan kishida ko‘tarinki kayfiyat hosil qilishi, tinglovchini o‘ziga jalb etishi, uni Vatanni sevishga undashi bilan ajralib turadi.

Ijrochi uchun esa, ushbu asar engil, chaqqon, virtuoz harakatlarni taqozo etadi va uni ko‘tarinki kayfiyatda ijro etish kishiga zavq bag‘ishlaydi.

gliss. c.l.

П П Л П

The first system of the musical score consists of three staves. The top staff is a single melodic line in treble clef, starting with a glissando marked 'gliss. c.l.' and followed by a series of notes with dynamic markings 'f' and 'p'. Above the staff are the letters 'П П Л П'. The middle and bottom staves are a grand piano accompaniment in treble and bass clefs, respectively, providing harmonic support with chords and moving lines.

^

f

The second system continues the musical piece. It features a piano accompaniment in the lower staves and a melodic line in the upper staff. A dynamic marking 'f' is present. A wedge-shaped hairpin indicates a crescendo in the piano part. The notation includes various rhythmic values and articulation marks.

mf

П П Л П

The third system concludes the page. It features a piano accompaniment and a melodic line. A dynamic marking 'mf' is present. Above the staff are the letters 'П П Л П'. The system ends with a double bar line and a repeat sign.

Pizz

$\Delta \Pi$ $\Delta \Pi$ $\Delta \Pi$

f *p* *f*

Detailed description: This system contains three staves of music. The top staff has a treble clef and a key signature of two sharps (F# and C#). It features a series of eighth-note chords with a 'Pizz' (pizzicato) instruction above. Above the first three measures, there are markings $\Delta \Pi$, $\Delta \Pi$, and $\Delta \Pi$. Dynamic markings *f*, *p*, and *f* are placed below the staff. The middle staff has a treble clef and contains chords with a 'y' marking above. Dynamic markings *f*, *p*, and *f* are present. The bottom staff has a treble clef and contains eighth-note chords with a 'y' marking above. Dynamic markings *f*, *p*, and *f* are present.

Detailed description: A single blank musical staff with a treble clef and a key signature of two sharps (F# and C#).

f

Detailed description: This system contains two staves of music. The top staff has a treble clef and a key signature of two sharps. It features a series of eighth-note chords. Dynamic marking *f* is present. The bottom staff has a bass clef and contains eighth-note chords. Dynamic marking *f* is present.

$\Delta \Pi \Delta \Pi \Delta \Pi$

f *ff*

Detailed description: This system contains three staves of music. The top staff has a treble clef and a key signature of two sharps. It features a series of eighth-note chords with a 'Pizz' instruction above. Above the last three measures, there are markings $\Delta \Pi \Delta \Pi \Delta \Pi$. Dynamic markings *f* and *ff* are present. The middle staff has a treble clef and contains chords with a 'y' marking above. Dynamic marking *ff* is present. The bottom staff has a bass clef and contains eighth-note chords with a 'y' marking above. Dynamic marking *ff* is present.

Asar mashhur changchi, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori Ahmadjon Odilov tomonidan chang cholg‘u yo‘liga moslashtirilgan.

U 2/4 chorakli o‘lchovda, *moderato* ijro sur‘atida, erkin tarzda (*ad libitum*) kadensiya bilan boshlanadi. Asarda ko‘pgina tremolo, trel, forshlag singari musiqiy bezaklar qo‘llanilgan. Unda turli tonalliklarga og‘ishma va modulyasiyalar kuzatiladi.

Asarni ijro etishda asosan tiniq ijro intonatsiyasi, tovush dinamikasi hamda ijro sur‘atini asar dramaturgiyasiga binoan tutib turish zarur.

Zamonaviy pedagogika bolalar bilan dars faoliyatlarini asosan ularning individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish zarurligini, bolalar guruh tarzida o‘qitilishini hisobga olsak, turli guruhlarda aqliy imkoniyatlari turlicha bo‘lgan bolalar mavjudligini ko‘ramiz. SHu boisdan, musiqiy faoliyatlarni uyg‘un tarzda o‘zlashtirishda bolalarning o‘ziga xos dunyosi, aqliy imkoniyatlari, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta’lim jarayonini tashkil etish zarur.

Ayniqsa, qulay va optimal metodikalarni o‘qitish tizimiga joriy etish orqali ta’lim jarayonini oqilona tashkil etish mumkin. O‘qituvchi-musiqachining birinchi galdagi vazifasi – o‘quvchilarning produktiv faoliyatini, ya’ni, ularda ijodiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatlarini ta’minlashdir. Produktiv faoliyat deganda, darsdagi barcha faoliyatlarni ma’lum izchillikda o‘zlashtirish, ya’ni ma’lum faoliyatga ijodiy yondashuv tushuniladi.



Наср—ашула бўлими

вокальный раздел

БИРИНЧИ ГРУППА ШУЪБАЛАР ПЕРВАЯ ГРУППА ШУЪБЕ

САРАХБОРИ БУЗРУК

M. M. $\text{♩} = 72-78$

The musical score consists of seven staves. The first two staves are instrumental. The third staff begins the vocal line with a dynamic marking of *f*. The lyrics are written below the notes. The score includes various musical notations such as slurs, accents, and dynamic markings.

Дил - бар со - ёни ма - ган жи - да
ти бу фи - роқ э - миш
куз - дин йи - роқ бул - са -
нгул - дин йи - роқ э - миш

о о

Uchinchi bosqichda o‘qish jarayonida biz maqom yo‘nalishida ko‘pgina asarlarni ijro etish va tahlil qilishga, o‘rganishga erishdik. Jumladan,

“SHashmaqom”ning “Buzruk” maqomidan “Saraxbori Buzruk”ni o‘rganganimizda, ushbu asarning birinchi guruh sho‘balariga kirishi, “Buzruk” maqomining nasr qismiga xos ekanligi, uning 2/4 chorakda, M.M.



= 72-78 ijro sur‘atida ijro etilishini bilib oldik va uni ushbu talablar asosida ijro etishga erishdik.

Mazkur o‘rgangan barcha ijroviy asarlar hamda nazariy bilimlarimizni kelgusi pedagogik faoliyatimizni oqilona tashkil etishda albatta qo‘llaymiz va u bizga dasturilamal bo‘ladi, degan umiddamiz.

Keyingi bobda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy faoliyatlarga qiziqtirishning imkoniyatlari, yo‘llari va usullari borasida fikr yuritamiz.

2 BOB. O‘QUVCHILARDA MUSIQIY FAOLIYATLARGA NISBATAN QIZIQISHLARNING NAMOYON ETILISHI.

§ 2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish imkoniyatlari.

Musiqiy faoliyatlar o‘z mohiyat e‘tibori bilan musiqa ta‘limini amalga oshirishning negizini tashkil etadi va bu borada o‘quvchilarga etarli bilim va ko‘nikmalarni singdirish, ularni turli musiqiy faoliyatlarga nisbatan qiziqishlarini shakllantirish zarurdir.

Boshlang‘ich sinf musiqa darsi umumiy musiqiy ta‘limning poydevorini tashkil etadi va unga nihoyatda e‘tibor bergan holda, har bir o‘quvchining qalbiga yo‘l topa olgan tarzda musiqaga muhabbatni tarbiyalab borish lozim.

Birinchi sinfdan boshlab musiqa olamiga kirar ekan, bolalar musiqa ohanglarining boshqa tabiiy tovushlardan farqini, ya‘ni ularning ma‘lum balandlikka ega ekanligini bilib oladilar. SHuningdek, turli cholg‘u asboblari, bastakorlar, tovush balandligi, uning kuchi va tusi xususida ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.

Qo‘shiqlar kuylash, musiqa asarlari tinglash, tinglangan asarlar haqida gapirib berish, uning mazmunini ifodalab berish kabi vazifalarni bajarishga o‘rganib boradilar. Musiqa asarlarini tahliliy tinglash, ya‘ni, ularning xarakteri, dinamikasi, tembri, ijro sur‘ati va boshqa xususiyatlari haqida ma‘lumotlarni bilib olish, ularni tasavvur qilish uchun o‘quvchida kuchli musiqiy qobiliyatlar majmuasi bo‘lishi talab qilinadi.

Musiqiy qobiliyatlar tug‘ma, genetik xususiyatlar sirasiga kiradi va uni takrorlash, mehnat qilish orqali rivojlantirish ancha mushkul.

Musiqqa darslarida musiqiy qobiliyatlari turli darajada rivojlangan o'quvchilar ishtirok etadi. SHu jihatdan, musiqiy ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etishda ko'pgina murakkabliklar yuzaga chiqadi. Jumladan, musiqqa materialini o'quvchilarga etkazishda ular ushbu materialni bir tekis o'zlashtirmaydi, ba'zi o'quvchilar birinchi ijro etilganidayoq o'rganib olsa, boshqalarining ushbu musiqqa materialini o'rganishi uchun asar parchasini bir necha marta qaytarishga to'g'ri keladi.

Bu jihat bolalardagi musiqiy qobiliyatlar darajasining turlicha ekanligini ko'rsatadi. SHu bois, darsda o'quvchilar bilan musiqiy faoliyatlarni amalga oshirishda, ularga differensial yondashuv ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Masalan, birinchi sinfda M.Toshpo'latov she'ri, Il.Akbarov musiqasi bilan "Onajonlar bayrami" qo'shig'ini o'quvchilar bilan o'rganishda ushbu qo'shiqdagi yonma - yon joylashgan va yuqorilab boruvchi sakkiztalik notalarni intonatsiya qilish vazifasi turadi. Ushbu qo'shiq kuyini barcha bolalar bir xilda sifatli ijro etishi qiyin. Sababi, qo'shiq kuyining bir tovush balandligida bir necha notani ijro etish zarurligidir. Bu, o'quvchilardagi kuylash malakalari bilan bog'liq bo'ladi.

Ijro jarayonida bolalar qo'shiqning birinchi jumlasini birmuncha ravon ijro etishi mumkin.

Sakkizinchi mart kuni,

Onajonlar bayrami.

Yo'llariga poyonoz, dasta gullar boylami.

Bunda oxirgi qator jumlarini ijro etish ancha qiyin kechadi. CHunki, bunda tovushlar pastga tomon yo'nalgan holda ijro etiladi.

Ushbu asarni ijro etishga o'rganishdan oldin nisbatan qiyin bo'lgan qismlarini aniqlab, belgilab olish tavsiya etiladi. SHunday qilinganda, qo'shiqni o'rganish birmuncha engil amalga oshirilishi mumkin, natijada bolalar bilan amalga oshiriladigan ijro faoliyati sifati ancha yuqori bo'ladi.

ONAJONLAR BAYRAMI

N. Toshpo'latov she'ri *Il. Akbarov musiqasi*


Jadal

Sak-ki-zin-chi mart ku-ni O-na-jon-lar bay-ra-mi


Yo'l-la-ri-ga po-yan-doz Das-ta gul-lar boy-la-mi

Qo'shiqda major tovushqatori xususiyatlari yaqqol namoyon etiladi, buni ijro jarayonida asarning yorqin, yuqori kayfiyat bilan o'quvchilarga ta'sirini alohida ta'kidlab tushuntirish zarur. YOKi ikkinchi sinfda o'quvchilarga musiqa savodi faoliyati bo'yicha nota cho'zimlari haqidagi bilimlarni singdirishda: notalarni - bir olmani, tarvuzni yoki kulcha nonni yaxlit va bir necha bo'laklarga bo'lgan holda ko'rsatilishi bolalarning ushbu dars materialini tez, puxta va tushunarli tarzda anglashiga olib keladi.

Butun nota butun olmaga o'xshaydi.
Butun nota — butun olmaga teng.




Yarim nota yarim olmaga o'xshaydi.
Yarim nota — yarim olmaga teng.



Chorak nota chorak olmaga o'xshaydi.
Chorak nota — chorak olmaga teng.



Nimchorak nota nimchorak olmaga o'xshaydi.
Nimchorak nota — nimchorak olmaga teng.



Notalar qanday cho'zimda ekanligini
mustaqil aniqlang.



Bunda o'quvchilar yaxlit va uning bo'laklaridagi nisbat tushunchasini, har bir bo'lak oldingisidan ikki marta farq qilishini anglab etadilar. Ko'rsatib berilgan nazariy misollar amaliyotda, ya'ni ushbu cho'zimdagi notalar ijro etib ko'rsatiladi. Natijada bolalarning musiqa savodi bo'yicha dars materialini o'zlashtirishi yaxshi kechadi.

Kompozitorlar hayoti va ijodi borasida ma'lumotlar berib, jumladan, uchinchi sinfda Farhod Alimovning hayot yo'li va yaratgan asarlari haqida gapirganda, ushbu kompozitorning surati, uning asarlaridan nota misollari ko'rsatilsa, asarlaridan namunalar tinglansa maqsadga muvofiq bo'ladi.



Farhod Alimov

(1947-y.)


„Biz istiqbol egalari“, „Ona tilim – o‘zbek tilim“, „Ahillik – do‘stlik“, „Chaqqon bola“, „Oppoq qandim“ kabi ajoyib qo‘shiqlari bilan bolalar qalbidan joy olgan bastakor Farhod Alimov Toshkentda tug‘ilib o‘tdi.

Yoshligidanoq musiqaga bo‘lgan katta ishtiyoq uni, avval, g‘ijjak sozi sirlarini o‘rganishga, so‘ngra kompozitorlik mutaxassisligini egallashga chorladi.

Bugungi kunda serqirra ijodkor ko‘plab musiqali spektakllarga musiqa yozgan, xor va yakkaxonlar uchun talaygina qo‘shiqlar yaratgan kompozitordir. Uning simfonik orkestr, xalq cholg‘ulari orkestri uchun yozgan rang-barang asarlari radio to‘lqinlarida muntazam yangrab turadi.




CHolg‘u sozlari borasida o‘quvchilarga ma‘lumotlar berganda, to‘rtinchi sinfning birinchi choragida cholg‘u asboblardan dutor, do‘mbira, qashqar rubobi, ud, afg‘on rubobi kabi sozlar haqida gapirib, ushbu asboblarni yoki ularning suratlarini ko‘rsatish, bu asboblarda musiqa asaridan parcha ijro etish yoki yozuvini tinglab ko‘rsatish muhimdir.



Dutor

Do'mbira



Qashaar rubobi

Afg'on rubobi

Ud

SHuningdek, taniqli sozandalar borasida ma'lumotlar berganda, mashhur tanbur, dutor va sato ijrochisi Turg'un Alimatov ijodiy faoliyati borasida fikrlar bildirish mumkin.



Atoqli san'atkor Turg'un Alimatov satoda kuy ijro etmoqda

Jumladan, kichik maktab yoshidagi bolalarning musiqiy imkoniyatlari ancha tor bo'lib, ular bilan ishlaganda, musiqa asari sur'ati, kayfiyati, dinamikasi kabilar doirasida ma'lumotlar almashish mumkin. Bunda o'quvchilar ijro etilgan yoki tinglangan asarning yuqorida keltirilgan ifoda vositalari borasida o'zlarining fikrlarini bildirishlari mumkin. SHuni alohida ta'kidlash zarurki, hamma bolalar ham ushbu savollarga bir xilda, batafsil javob berish imkoniyatiga ega emas. Ularning imkoniyatlari turlicha bo'lishiga quyidagi sabablar bor:

1. O'quvchining musiqaga qiziqishi past darajada bo'lishi mumkin;

2. O'quvchining oilasida musiqaga ustuvor ahamiyat qaratilmasligi mumkin;

3. O'quvchida musiqiy qobiliyatlar etarli darajada mavjud bo'lmasligi mumkin;

4. O'quvchining o'rtoqlari va u bilan muomalada bo'ladigan kishilar orasida musiqa uncha qadrlanmasligi mumkin.

Ushbu xususiyatlar bolaning musiqiy imkoniyatlariga ma'lum darajada ta'sir etishi mumkin, shuning uchun yuqoridagi omillar borasida ma'lumotlarga ega bo'lsak, biz har bir o'quvchi bilan tashkil etiladigan musiqiy ishning reja va loyihasini tuzib olishimiz va shu asosda ishni tashkil etishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, maktab boshlang'ich sinf musiqa darsida amalga oshiriladigan barcha faoliyatlar o'quvchilarning musiqiy bilim doiralarini kengaytirish, ularni milliy musiqa san'atimizning namunalari bilan tanishtirish, shuningdek, ularda badiiy musiqiy didni tarbiyalashga yo'naltirilgandir. Darsda amalga oshiriladigan bir necha faoliyatlar esa yaxlit dars jarayonining tarkiyubiy qismlari bo'lib, ularga nisbatan o'quvchilarda qiziqishlarni shakllantirish umumiy musiqiy bilimlarining oshishiga olib keladi.

§ 2.2. O‘rta sinf musiqa mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish yo‘l va usullari.

Umumta’lim maktabining 5-7 sinflari o‘rta sinflarga mansub bo‘lib, ushbu yoshga mansub bolalarning musiqaga munosabati, qiziqishi va fikrlashi kichik maktab yoshdagi bolalarning individual sifatlaridan farq qiladi. Endi ular musiqa haqida ancha keng ma’lumotlarga, bilim va malakaga egadirlar.

SHuning uchun o‘rta sinflarda bolalar bilan musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etib, ularni barcha musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish, shuningdek, ularning qo‘shiq kuylash va tinglash imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda badiiy pedagogik faoliyatni tashkil etish talab qilinadi.

Beshinchi sinfda bolalarning musiqiy dunyoqarashi va tafakkuri o‘sadi, qobiliyatlari ancha rivojlanadi. Beshinchi sinf darsligida aks ettirilgan musiqiy faoliyatlar bo‘yicha materiallar o‘zining ijroviy imkoniyatlari, ilmiyligi va badiiy ta’sir xususiyatlari bilan ancha murakkab, ifodali, yaxlit maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, rivojlantiruvchi xarakterga egadir.

Jumladan, kuylash faoliyati uchun mo‘ljallangan X.Qayumov she’ri, A.Mansurov musiqasi bilan “Hur, Respublikam”ni o‘rganish jarayonida ushbu asarning badiiy hamda musiqiy –pedagogik tahlilini amalga oshiramiz.

HUR RESPUBLIKAM

Urshid Qayumov she'ri

Avaz Mansurov musiqaasi

O'rtacha tez mf

(chapaklar) Erk qu-yo- shi

ziyosidan topding baxt iq- bol, Qar-dosh-lik- dan

yo'-ling por-loq nur- li is- tiq- bol...

Naqarot:


O-na Va-tan gul- la- gay- san yash-na, top ka-mol:

The image shows a musical score for the song 'Hur Respublikam'. It begins with a piano introduction consisting of two measures of eighth notes, marked '(chapaklar)'. The tempo is 'O'rtacha tez' (moderate) and the dynamics are 'mf' (mezzo-forte). The vocal line starts with the lyrics 'Erk qu-yo- shi' and continues with 'ziyosidan topding baxt iq- bol, Qar-dosh-lik- dan' and 'yo'-ling por-loq nur- li is- tiq- bol...'. A 'Naqarot' (interlude) follows, consisting of a single measure of eighth notes, with the lyrics 'O-na Va-tan gul- la- gay- san yash-na, top ka-mol:'.

Jumladan, qo'shiqni o'rganish uchun avvalo uning tonal xususiyati, vokal ijroda nafas olish jihatlari borasida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz zarur. Qo'shiq 4/4 o'lchovda, do minorda, qo'vnoq kayfiyatda, o'rtacha tezlikda ijro etiladi.

Qo'shiqning dastlabki ikki takti chapak (qarsak) tarzida repriza bilan ikki marta ijro etiladi va so'ngra asosiy band boshlanadi.

nazaridan yondashish zarur.



Ko'rkam diyor O'z- be- kis- ton ser- qu- yosh o'l-kam



Sen-ga sha-raf, sen-ga ol-qish Hur Res-pub- li-kam...



Xo- xo, xo- xo, xo- xo, xo- xo... (chapaklar)



Sen-ga sha-raf, sen-ga ol- qish,



Hur Res- pub- li-kam ser qu-yosh o'l-kam...



lya-lya-lya, lya lya, lya-lya-lya, lya lya, lya-lya-lya-lya lya,



lya-lya-lya-lya, lya Sen- ga sha-raf, sen- ga ol- qish,



Hur Res- pub- li-kam ser qu-yosh O'l-kam...

Jumladan, unda chorak, o'n olitalik, sakkiztalik kabi notalar, turli cho'zimga ega bo'lgan pauzalar, liga va legato ishtirok etadi.

Qo'shiqning naqarot qismi ko'p ovozli, tersiya, kvarta, kvinta va seksta intervallaridan iborat bo'lgan ikki ovozli shaklda ijro etiladi. Qo'shiqda kuchli hissaning joyi o'zgaradigan, ya'ni, sinkopa tarzidagi taktlar bor. Ularni o'rganish uchun takti, hatto taktning bir qismini alohida-alohida tarzda, bir necha marta kuylash talab etiladi.

Ko'rib turganimizdek, turli intervallar borasida tahliliy fikr yuritish, bu musiqa savodi faoliyatiga daxldor. Qo'shiqda shuningdek, nuqtali notalar, turli o'lchamdagi pauzalar, liga va legato, shuningdek, takrorlash belgilari uchraydi. Ularni o'quvchilarga tushuntirishda albatta musiqa savodi nuqtai nazaridan kelib chiqish talab etiladi.

Ushbu beshinchi sinfnning birinchi choragida musiqa savodi bo'yicha shovqinli va musiqiy tovushlarni farqlab, o'rganish maqsad qilib qo'yilgan. Bu musiqa savodi material boshlang'ich sinflarda ham o'tilgan, biroq, o'rta sinfga kelganda, yana bir marta takrorlash uchun tavsiya qilingan. SHuningdek, musiqa savodi bo'yicha bilimlarni mustahkamlash maqsadida savollar ham berilgan bo'lib, dars jarayonida ulardan albatta foydalanish zarur. SHunda bolalarningg musiqa savodi musiqiy faoliyatiga nisbatan qiziqishi oshadi va u yanada ko'proq bilim olishga intiladi.

Musiqa savodi bo'yicha egallangan bilimlarni mustahkamlash maqsadida qo'shimcha tarzda darslikda turli rasmlar va matnlar keltirilgan.

Musiqa tinglash faoliyatini amalga oshirish maqsadida uchinchi chorak boshida sinf fonotekasidan opera, balet, musiqali drama va komediya, bolalar

uchun musiqali ertak-tomoshalardan parchalar tinglab, misollar keltirish ta'kidlangan.

Ma'lumki, hozirgi kunda barcha umumta'lim maktablarida sinf yoki umuman maktab fonotekasi, uni zarur audio va video materiallar bilan to'ldirish masalasi muammo bo'lib turibdi. shunga qaramasdan, mavjud materiallar asosida o'quvchilarga musiqa tinglash faoliyatini tashkil etish mumkin. Bunda albatta qisqa kirish so'zi, asarni tinglash va uning tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ko'rib turganimizdek, musiqiy faoliyatlar bir-biridan ancha farqli xususiyatlarga ega bo'lsada, ularni yonma-yon, birgalashib o'rganish umumiy musiqiy bilimlar hajmining kengayishiga, o'quvchilarda musiqiy faoliyatlarga nisbatan qiziqishlarni tizimli tarzda shakllantirishga olib keladi.

Oltinchi sinf mumtoz musiqaga bag'ishlanganligi uchun musiqa mashg'ulotlarida turli ansambllar to'g'risida ma'lumotlar berib o'tiladi.

Jumladan, O'zbekiston xalq artisti, sozanda, hofiz va bastakor, akademik YUnus Rajabiy Toshkent radiouzelida 1927 yili radiostansiya tuzilgach, o'zi tashkil etgan ansambl bilan har kuni shu erda yarim soatdan konsert berishadi. Keyinroq shu erda 12 kishilik ansambl tashkil topadi. Mashhur san'atkorlardan SHorahim SHoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Domla Halim Ibodov, Imomjon Ikromov, Hoji Abdurahmon Umarov, Safo Mug'anniy, Matyusuf Xarratov (CHokariy), Anvar Rajabiy, Nazira Ahmedova, Maryam Alishaevalar ushbu ansamblning dastlabki yillaridagi a'zolari edi. 1935 yillarga borib ansambl ijrochilari soni 40 taga etadi va YU.Rajabiy ularga bevosita rahbarlik kiladi.

1934 yili 1937 yilda Moskvada o‘tadigan birinchi O‘zbekiston san’ati va adabiyoti dekadasiga tayyorgarlik boshlanadi. Dekadaga atab «YOlg‘iz» (katta ashula), «Endi sendek» va «Hammamiz» kuylari asosida uch qismdan iborat syuita yaratadi va ijro etiladi.

1958 yildan esa maqomchilar ansambli uning rahbarligida ishlay boshlaydi. Xalq musiqa merosining durdonalarini YU.Rajabiy ko‘pdan buyon to‘plab, notaga yozib olayotgan edi. U 1947 yildan e’tiboran qayta sayqal berib, notaga tushira boshlaydi.

O‘tgan asrning 60-70 yillarida SHashmaqomning olti tomligi, har bir olti maqom alohida-alohida musiqashunos F.Karomatov tahririda nashr etiladi. Bu murakkab ishni amalga oshirishda maqom ansamblining zahmatkashlari: ansamblning musiqa rahbari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Faxriddin Sodiqov, O‘zbekiston xalq artistlari Kommuna Ismoilova, Berta Dovidova, O‘zbekiston xalq hofizlari Ortiqxo‘ja Imomxo‘jaev, Orif Alimaxsumov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Karim Mo‘minov, sozandalardan Orif Qosimov, Zokirjon Sodiqov, Ishoq Qodirov, Ilhom To‘raev, Turg‘un Alimatov, Umarjon Otaev, Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev hamda G‘aybulla Sa’dullaevlar YU.Rajabiy bilan yonma-yon turib hormay-tolmay mehnat qilishgan.



Ettinchi sinf mahalliy musiqiy uslublar, SHashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona Toshkent maqom yo‘llariga bag‘ishlangan. Musiqa savodi bo‘yicha birinchi chorakda intervallar, ikkinchi chorakda tayanch parda (tonika), tonallik, yarim ton va butun ton, major va minor tovushqatorlari, usul, uchinchi chorakda turli usullarning ifodalanishi, maqomlarning tovushqatorlari, to‘rtinchi chorakda esa intervallar, usullar, tabiiy major va minor tonalligi, ufar usuli borasidagi bilimlarni mustahkamlash amalga oshiriladi.

Musiqa pedagogikasi san‘at, badiiy-estetik didni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bois, o‘ziga xos badiiy xususiyatlarni namoyon etadi va o‘quvchilar bilan musiqiy faoliyatlarni tashkil etishda alohida jonbozlikni talab etadi.

YUqorida keltirilgan musiqiy faoliyatlarga o‘quvchilarni qiziqtirish yo‘l va usullari borasidagi materiallar yakuniy natija – o‘quvchilar ongida milliy madaniyat va ma‘naviyatni shakllantirish, ularni komil insonlar etib tarbiyalash ishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Umuman, maktab musiqa ta'limini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular bir nechta faoliyatlarni amalga oshirish, ya'ni, badiiy ijro, musiqa tinglab tahlil qilish, kompozitorlar hayoti va ijodi, musiqa savodxonligi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lish, bolalar cholg'u asboblariida ijro etish, shuningdek, musiqiy ritmik harakatlarni amalga oshirish orqali bajariladi.

SHuni alohida ta'kidlash zarurki, yuqorida keltirilgan barcha musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish uchun o'quvchida ma'lum musiqiy qobiliyatlar majmuasi hamda musiqiy faoliyatga nisbatan qiziqishlar bo'lishi talab etiladi. Agar ushbu xususiyatlar mavjud bo'lmasa, yuqorida keltirilgan vazifalarni to'la bajarish mushkul.

Bundan tashqari, musiqiy imkoniyatlari turli darajada ifodalanganligi uchun o'quvchilar bilan amalga oshiriladigan musiqiy faoliyatlarda ularga alohida yondashuv ijobiy natijalarga olib keladi. Bu esa, o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

XULOSA

Musiqqa darslarida o'quvchilarni musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish dolzarb pedagogik muammo bo'lib, musiqiy faoliyatlarga nisbatan ularning qiziqishlarini shakllantirishning yo'l va usullari aniqlandi.

Maktab musiqqa darsidagi faoliyatlar ko'p qirrali yaxlit jarayon bo'lib, o'quvchilarning turli musiqiy faoliyatlar borasidagi bilim va tasavvurlari ularni yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Mazkur muammoni ma'lum tarzda ijobiy hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur, deb hisoblaymiz. Bular:

- darsda musiqiy faoliyatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qulay ruhiy-hissiy vaziyat yaratish;
- har bir musiqiy faoliyatni amalga oshirganda, dars materialini qiziqarli tarzda o'quvchilarga etkazish;
- faoliyatlar borasidagi o'quvchilarning badiiy-musiqiy imkoniyatlari darajasini o'rganish va shu asosda ishni tashkil qilish;
- musiqiy qobiliyatlari nisbatan past ifodalangan o'quvchilar bilan darsda alohida ishlash.

Ushbu ish usullari o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarga nisbatan qiziqishlarini takomillashtirishda alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-t. -Toshkent: "O'zbekiston", 2003.
2. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat-engilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008
3. Karimov I. Ma'naviyat, falsafa va hayot. T.: "Fan" 2007.
4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O'zbekiston, 2001
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.- T.: O'zbekiston, 2003
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" 2006 yil 25 avgust qarori.//Xalq so'zi, 2006
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalar musiqa va san'at mak-tablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yil-larga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoyishi //Xalq so'zi,2008,8 yanvar
8. Abralova M. va boshqalar. Musiqa. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. 2- sinf. - T.: "G'. G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi", 2008.
9. Abralova M. va boshqalar. Musiqa. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. 3- sinf. - T.: "G'. G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi", 2008.
10. Begmatov S. va boshqalar. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. – T.: "G'. G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi", 2008.
11. Ibrohimov O. va boshqalar. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. – T.: "G'. G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi", 2008.
12. Ibrohimov O., Nurmatov H. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. – T.: "G'. G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi", 2007.
13. Mansurov A. va boshqalar. Musiqa. 5-sinf uchun darslik. – T.: "G'. G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi", 2005.

14. Norxo'jaev N., Nurmatov H. Musiqa alifbosi. 1-sinf uchun darslik. – T.: “G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi”, 2008.

15. Norxo'jaev N., Nurmatov H. Musiqa. 2-sinf uchun darslik. – T.: “G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi”, 2008.

16. Norxo'jaev N., Nurmatov H. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. – T.: “G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi”, 2008.

17. Omonullaev D., Nurmatov H., Mamirov Q. Umumiy o‘rta ta’limning DTS va o‘quv dasturi. Musiqa madaniyati. – T.: “O‘qituvchi”, 2008

18. Soipova. D . “ Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi” T.2009.

19. YUsupova. N. “ Musiqa savodi , metodikasi va ritmika” Toshkent. 2010 yil. “ Musiqa ” nashriyoti.

20. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).

21. <http://www.guldu.uz/>

22. <http://www.gduportal.uz/>

23. <http://www.ziyonet.uz/>

24. [http://www.guldu.zn. uz/](http://www.guldu.zn.uz/)

Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakultetining

“Musiqqa ta’lim yo’nalishi” bitiruvchi kurs talabasi

Zokirova Umidaning “Musiqqa madaniyiyati darsi va uning mazmuni hamda tuzilish jihatlari mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

Ilmiy rahbar xulosasi

Umuman, maktab musiqqa ta’limini amalga oshirishning o’ziga xos xususiyatlari mavjud bo’lib, ular bir nechta faoliyatlarni amalga oshirish, ya’ni, badiiy ijro, musiqqa tinglab tahlil qilish, kompozitorlar hayoti va ijodi, musiqqa savodxonligi bo’yicha ma’lumotlarga ega bo’lish, bolalar cholg’u asboblariida ijro etish, shuningdek, musiqiy ritmik harakatlarni amalga oshirish orqali bajariladi.

SHuni alohida ta’kidlash zarurki, yuqorida keltirilgan barcha musiqiy faoliyatlarni amalga oshirish uchun o’quvchida ma’lum musiqiy qobiliyatlar majmuasi hamda musiqiy faoliyatga nisbatan qiziqishlar bo’lishi talab etiladi. Agar ushbu xususiyatlar mavjud bo’lmasa, yuqorida keltirilgan vazifalarni to’la bajarish mushkul.

Bundan tashqari, musiqiy imkoniyatlari turli darajada ifodalanganligi uchun o’quvchilar bilan amalga oshiriladigan musiqiy faoliyatlarda ularga alohida yondashuv ijobiy natijalarga olib keladi. Bu esa, o’qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratiga bog’liqdi

Ushbu bitiruv ishi umumta’lim maktablari musiqqa o’qituvchilari, talabalar uchun foydali manba bo’lib xizmat qilishi mumkin.

Ishni muhim dolzarb muammoni tadqiqiga bag’ishlangan izlanish sifatida baholash va himoyaga tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbar:

p.f.n.dosent B.Madrimov_____

Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakultetining

“Musiqqa ta’lim yo`nalishi” bitiruvchi kurs talabasi

Zokirova Umidaning “Musiqqa madaniyiyati darsi va uning mazmuni hamda tuzilish jihatlari mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

Taqriz

Umumta’lim maktablari musiqqa madaniyati fani dasturlari mazmunida musiqiy qiziqishlarini shakllantirishga yetakchi ahamiyat berilgan.

Insonning go’zallik tuyg’usini taraqqiy ettirmay turib, ma’naviy barkamol inson haqida ga’irib bo’lmaydi. Toki odamzod o’zini qurshab turgan tashqi olamda, o’zi yashayotgan jamiyatda, o’zi bilan muloqotda bo’layotgan kishilarda tarixan shakllangan va muayyan davrda amal qilinayotgan badiiy ijod namunalari mujassamlashgan go’zallikni his qila olmas ekan, hech qachon ma’naviy barkamol inson darajasiga ko’tarila olmaydi

Zokirova Umidaning “Musiqqa madaniyiyati darsi va uning mazmuni hamda tuzilish jihatlari mazkur ilmiy-tadqiqot ishida o’quvchilarda musiqiy va badiiy **qiziqishlarini** qanday shakllantirishning pedagogik va uslubiy negizini yoritib berishga harakat qilgan.

Ishning 1-bobi mazmunida Musiqiy faoliyatlar va ularning badiiy hamda pedagogik xususiyatlari tushunchalarini adabiyotshunoslik, san’atshunoslikka oid manbalarga tayangan holda tahlil qilingan. Shu o’rinda Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlariga oid asarlar g’oyaviy badiiy mazmuni orqali estetik tarbiyalashga xizmat qilishi tushuntirib berilgan.

Bundan tashqari musiqiy asarlar orqali (tinglash, kuylash va asarni tahlil qilish) o’quvchilarning musiqiy-badiiy didini qay darajada shakllanganligini alohida ko’rsatib bergan.

Ushbu bitiruv ishi umumta’lim maktablari musiqqa o’qituvchilari, talabalar uchun foydali manba bo’lib xizmat qilishi mumkin

Taqrizchi:

Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakultetining
“Musika ta’lim yo`nalishi” bitiruvchi kurs talabasi
Sharipova Dilbarning “O’quvchilarning musiqiy qiziqishlarini shakllantirish
yo’l va usullari” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

Taqriz

“Musika madaniyati” fani orqali o’quvchilarda Musiqiy faoliyatlarning badiiy-estetik xususiyatlari shakllantirish bugungi kunda eng muhim masalalardan biridir. Did insonga xos fazilat hisoblanib u musika darslarida olib boriladigan nazariy va amaliy bilimlar orqali shakllanib boradi.

Zokirova Umidaning o’zining Musika madaniyati darsi va uning mazmuni hamda tuzilish jihatlari ” mazkur ilmiy-tadqiqot ishida o’quvchilarda musiqiy va badiiy **qiziqishlarini tuzilish jihatlari** pedagogik va uslubiy negizini yoritib berishga harakat qilgan.

Ishning 1-bobi mazmunida Musiqiy faoliyatlar va ularning badiiy hamda pedagogik xususiyatlari tushunchalarini adabiyotshunoslik, san’atshunoslikka oid manbalarga tayangan holda tahlil qilingan.

Ishning 2-bobida esa sinf o’quvchilarini musiqiy faoliyatlarga qiziqtirish imkoniyatlari shakllantirishning shakl va usullari va pedagogik mazmuni yoritib berilgan.

Ushbu bitiruv ishi umumta’lim maktablari musika o’qituvchilari, talabalar uchun foydali manba bo’lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etish barobarida yuqori baholanishiga aminman.

Taqrizchi:

